



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 318 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmirzo	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbosovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil	235
<i>Abdusattarova Zaynab</i>	
Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili.....	243
<i>Avazova Oltin</i>	
Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati	247
<i>Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari	253
<i>Jo'layeva Munira Choriyevna</i>	
Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy	256
<i>Khodzhanizayeva Aygul Aytmuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari.....	264
<i>Saidova Dilorom Erkinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	269
<i>Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.....	274
<i>Norkulova Jasmina Sodikovna</i>	
Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi.....	277
<i>Saytniyozov Adham Annamuhmet o'g'li</i>	
Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	282
<i>Shaymatova Azizaxon Rustambekovna</i>	
Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish	286
<i>Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari	293
<i>Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli	297
<i>Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi</i>	
Адаптивная геймификация в школьном обучении физике	304
<i>Индира Бахадуровна Ерлепесова</i>	
Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	309
<i>Taylanova Sh. Z.</i>	



FUTBOLDA 11–12 YOSHLI DARVOZABONLARNI TEXNIK-TAKTIK JIHATDAN TAYYORLASHDA MAXSUS MASHQLARNING AHAMIYATI

Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li

Urganch davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada futbol bo'yicha 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlash jarayonida maxsus mashqlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati o'rganilgan. Maqolada ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili asosida darvozabonlarga xos maxsus mashqlarning tasnifi (oyoq harakati, reaksiya tezligi, pozitsion o'rnashish, sakrash texnikasi, to'p uzatish va o'yin fikrlashini rivojlantiruvchi mashqlar) taqdim etilgan, ularning yosh xususiyatlariga mosligi asoslangan hamda mashg'ulot jarayonini tashkil etishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: futbol, darvozabon, 11–12 yosh, texnik-taktik tayyorgarlik, maxsus mashqlar, motor ko'nikmalar, sport pedagogikasi, reaksiya tezligi.

Abstract: This article examines the pedagogical significance of using specialized exercises in the process of technical and tactical training of 11–12-year-old football goalkeepers. Based on an analysis of scientific and methodological literature, the article presents a classification of goalkeeper-specific exercises, including footwork, reaction speed, positional play, jumping technique, ball distribution, and game intelligence development exercises. Their suitability for the age characteristics of young goalkeepers is substantiated, and practical recommendations for organizing the training process are proposed.

Key words: football, goalkeeper, 11–12 years old, technical and tactical training, specialized exercises, motor skills, sports pedagogy, reaction speed.

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогическое значение использования специальных упражнений в процессе технико-тактической подготовки футбольных вратарей 11–12 лет. На основе анализа научно-методической литературы представлена классификация специальных упражнений для вратарей, включающая упражнения на работу ног, скорость реакции, выбор позиции, технику прыжков, передачу мяча и развитие игрового мышления. Обосновано их соответствие возрастным особенностям юных вратарей, а также разработаны практические рекомендации по организации тренировочного процесса.

Ключевые слова: футбол, вратарь, 11–12 лет, технико-тактическая подготовка, специальные упражнения, двигательные навыки, спортивная педагогика, скорость реакции.

KIRISH

Zamonaviy futbolda darvozabonning roli tobora kengayib bormoqda: u endi nafaqat to'p ushlab va zarbalarni qaytarish bo'yicha mutaxassis, balki jamoaning hujum va himoya harakatlarini tashkil etishda faol ishtirok etuvchi "maydondagi o'yinchi" sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy futbolning yuqori sur'ati, o'yin intensivligining ortishi va taktik sxemalarning murakkablashuvi darvozabondan tezkor qaror qabul qilish, maydonni keng ko'ra olish hamda himoya va hujum o'rtasida bog'lovchi vazifani samarali bajarishni talab etadi. Shu sababli bugungi kunda darvozabonning texnik-taktik tayyorgarligi jamoa muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

So'nggi yillarda futbol o'yinining mazmuni va uslubida yuz bergan o'zgarishlar darvozabonlarning funksional vazifalarini ham sezilarli darajada kengaytirdi. Ular nafaqat darvozani himoya qilish, balki to'pni aniq uzatish, hujumni boshlash, himoyachilar harakatini boshqarish hamda murakkab o'yin vaziyatlarida to'g'ri pozitsiya tanlash kabi vazifalarni ham bajaradilar. Bunday ko'nikmalarni shakllantirish esa yosh davridanoq maqsadli va ilmiy asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etishni talab qiladi.

Ayniqsa, 11–12 yosh davri darvozabonlarni tayyorlash jarayonida muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur yoshda harakat koordinatsiyasi, reaksiya tezligi, muvozanatni saqlash, fazoviy tafakkur va texnik ko'nikmalarni



egallash imkoniyatlari jadal rivojlanadi. Shu bois ushbu davrda maxsus mashqlarni tizimli qo'llash kelgusida yuqori sport mahoratini shakllantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ushbu vazifalarning murakkablashuvi darvozabonlarni tayyorlash tizimiga, xususan, yosh sport maktablarida olib boriladigan mashg'ulotlar mazmuniga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Maxsus mashqlarni yosh sportchilarning jismoniy, psixologik va funksional xususiyatlariga mos ravishda tanlash hamda texnik va taktik tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirish zamonaviy sport pedagogikasining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, darvozabon o'yinchisi jamoaning o'ziga xos, alohida tayyorgarlik talab qiluvchi mutaxassisligi hisoblanadi va uning texnik-taktik mahorati ko'p jihatdan yosh davrida shakllantirilgan harakat ko'nikmalariga bog'liq bo'ladi. M. Perez-Arroniz va hamkasblari o'tkazgan bibliografik tahlilda ham darvozabon mavqei mustaqil, o'ziga xos ilmiy-uslubiy yondashuvni talab qiluvchi sport-pedagogik yo'nalish sifatida talqin etiladi [3].

Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi nazariyasida texnik-taktik tayyorgarlik yagona, bir-biridan ajralmas jarayon sifatida qaraladi: texnika - harakatni bajarish usuli bo'lsa, taktika bu usuldan o'yin vaziyatiga mos ravishda oqilona foydalanish qobiliyatidir. Darvozabon uchun bu ikki komponentning uyg'unligi ayniqsa muhim, chunki uning har bir texnik xatosi bevosita darvozaga gol bo'lib qaytishi mumkin. Shu sababli pedagogik jarayonda texnik mashqlarni izolyatsiyalangan holda emas, balki taktik vaziyatlar bilan bog'lab o'rgatish zamonaviy metodikaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Mahalliy tadqiqotchilar A.Q. Qidirov va O.V. Borisova ham futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligini birgalikda rivojlantirishning o'yin faoliyati samaradorligini oshirishdagi hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlaydi [6].

11–12 yosh davri sport pedagogikasi va harakat fiziologiyasi nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Ko'plab tadqiqotchilar bu yosh oralig'ini markaziy nerv tizimining jadal rivojlanishi, koordinatsion qobiliyatlarning yuqori plastikligi va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirish samaradorligining ortishi bilan bog'liq "sezgir davr" (sensitive period) sifatida ta'riflaydi. Aynan shu davrda to'g'ri shakllantirilgan texnik harakatlar keyinchalik avtomatlashgan ko'nikmaga aylanadi, noto'g'ri o'zlashtirilgan harakatlarni esa katta yoshda tuzatish ancha mushkul kechadi. Shu boisdan 11–12 yoshli darvozabonlar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning mazmuni, vositalari va metodlari ilmiy asoslangan bo'lishi zarur. T. Koopmann va hamkasblari o'tkazgan tizimli sharh tadqiqotida ham iqtidorli yosh sportchilarning texnik ko'nikmalarini baholash va rivojlantirishda ilmiy asoslangan, standartlashtirilgan yondashuvlarning ustuvorligi asoslab berilgan [5].

Darvozabonlik faoliyati o'ziga xos texnik (to'pni ushlash, uloqtirish, zarbani qaytarish, sakrash, chiqish) va taktik (pozitsiya tanlash, hamkorlarni boshqarish, xavfni oldindan bashorat qilish) komponentlardan iborat bo'lib, bu ko'nikmalarni rivojlantirish umumiy futbol mashqlaridan farqli, maxsus (spetsifik) mashqlar tizimini talab etadi. F. Kielkopf va M. Keiner tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda darvozabonlarning texnik-taktik profili yosh va musobaqa darajasiga qarab sezilarli farqlanishi, bu esa mashg'ulot mazmunini yosh xususiyatlariga qat'iy moslashtirish zarurligini isbotlashi ta'kidlanadi [4]. Ammo amaliyotda ko'pincha yosh darvozabonlar bilan ishlash dala o'yinchilari uchun mo'ljallangan umumiy mashqlar asosida tashkil etiladi, bu esa ularning kasbiy mahoratini shakllantirishda samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunga qadar mahalliy sport pedagogikasi amaliyotida 11–12 yoshli darvozabonlar uchun ilmiy asoslangan, yosh xususiyatlarini hisobga oluvchi maxsus mashqlar majmuasi va uni mashg'ulot jarayoniga tatbiq etish metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi - xorijiy va mahalliy ilmiy-uslubiy manbalar tahlili asosida 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning pedagogik ahamiyatini asoslash hamda ularni tizimlashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) darvozabonlarga xos maxsus mashqlarning ilmiy-uslubiy tasnifini aniqlash;
- 2) 11–12 yosh davrining anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatlarini maxsus mashqlar mazmuni bilan bog'lash;
- 3) mashg'ulot jarayonini tashkil etishga oid amaliy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Muammoning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, darvozabonlik mahorati bir martalik yoki tasodifiy mashqlar orqali emas, balki ko'p yillik, izchil pedagogik jarayon natijasida shakllanadi. Xorijiy tajribada bu jarayon odatda to'rt bosqichga bo'linadi: umumiy harakat bazasini yaratish (harakat, yugurish, yiqilish, tik turish ko'nikmalari), asosiy texnik elementlarni o'zlashtirish, taktik fikrlashni rivojlantirish va, nihoyat, yuqori bosim ostida barqaror faoliyat yuritish ko'nikmasini shakllantirish. 11–12 yosh mana shu bosqichlar zanjirida



ikkinchi va uchinchi bosqichlar oralig'iga to'g'ri keladi, ya'ni bu davrda bola allaqachon boshlang'ich texnik zaxiraga ega bo'lib, endi uni murakkablashtirilgan sharoitlarda mustahkamlash va taktik mazmun bilan boyitish davri boshlanadi.

Xorijiy mutaxassislardan F. Otte va uning hamkasblari ta'kidlashicha, zamonaviy darvozabonni tayyorlash jarayoni endilikda faqat izolyatsiyalangan texnik mashqlar bilan chegaralanmasligi, balki qaror qabul qilish, idrok etish va o'yin sharoitiga moslashish komponentlarini o'zida mujassam etgan kompleks yondashuv asosida qurilishi lozim^[1].

Shu bilan birga, mahalliy sport amaliyotida darvozabonlar bilan ishlash ko'pincha yakka tartibda, tizimsiz tarzda, murabbiyning shaxsiy tajribasiga tayangan holda olib boriladi. Bu esa yosh darvozabonlarning texnik-taktik tayyorgarligida notekislikka, ayrim ko'nikmalarning yetarli shakllanmasligiga sabab bo'lmoqda. Demak, ilmiy adabiyotlar tahlili asosida maxsus mashqlarning ahamiyatini nazariy va uslubiy jihatdan asoslash, ularni yagona tizimga keltirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- 1) ilmiy-uslubiy va maxsus adabiyotlarni tahlil qilish;
- 2) pedagogik kuzatuv;
- 3) qiyosiy tahlil;
- 4) umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari.

Manba sifatida darvozabonlarni tayyorlash metodikasiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy jurnallarda (jumladan, sport fiziologiyasi va pedagogikasi yo'nalishidagi nashrlarda) e'lon qilingan maqolalar, shuningdek, amaliy murabbiylik tajribasini umumlashtiruvchi uslubiy qo'llanmalar o'rganildi.

Tahlil predmeti sifatida 11–12 yoshli darvozabonlar ishtirokidagi pedagogik-eksperimental va kuzatuv xarakteridagi tadqiqotlar, shuningdek, yetakchi futbol akademiyalarining darvozabonlarni tayyorlash dasturlari tanlab olindi. Maxsus mashqlar to'rt asosiy yo'nalish bo'yicha guruhlashtirildi:

- a) oyoq harakati va muvozanat mashqlari;
- b) reaksiya tezligi va koordinatsiya mashqlari;
- d) pozitsion o'rnashish va taktik fikrlash mashqlari;
- e) to'p bilan ishlash (ushlash, uloqtirish, uzatish) texnikasiga oid mashqlar.

Har bir yo'nalish bo'yicha adabiyotlarda keltirilgan pedagogik samaradorlik ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot ishi shartli ravishda uch bosqichda olib borildi.

Birinchi bosqichda mavzuga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar va internet manbalari qidirilib, saralandi, ularning ishonchliligi baholandi.

Ikkinchi bosqichda tanlangan manbalardagi ma'lumotlar mazmuniy tahlil qilinib, darvozabonlarga xos maxsus mashqlar mavzu bo'yicha guruhlarga ajratildi va tizimlashtirildi.

Uchinchi bosqichda olingan natijalar umumlashtirilib, 11–12 yosh davrining pedagogik-psixologik xususiyatlari bilan bog'langan holda amaliy tavsiyalar shakliga keltirildi.

Tadqiqotning ishonchliligini ta'minlash maqsadida faqat yangi nashr etilgan, mavzuga bevosita aloqador bo'lgan hamda ilmiy-amaliy asoslangan manbalarga ustuvorlik berildi. Bir-birini takrorlovchi yoki bir-biriga zid xulosalar chiqargan manbalar alohida qiyosiy tahlildan o'tkazildi, bu esa xulosalarning obyektivligini oshirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlar majmui quyidagi beshta yo'nalishni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir: oyoq harakati va muvozanat, reaksiya-koordinatsiya, pozitsion-taktik fikrlash, to'p texnikasi hamda psixologik-irodaviy tayyorgarlik.



1. Oyoq harakati (footwork) va muvozanat mashqlari

Darvozabonning har qanday texnik harakati to'g'ri oyoq ishi bilan boshlanadi. Yon tomonga qisqa qadamlar bilan siljish, muvozanatni saqlagan holda yo'nalishni tezda o'zgartirish ko'nikmalari yosh darvozabonlarda maxsus mashqlar orqali izchil shakllantirilishi lozim. Bu mashqlar keyinchalik sakrash va uloqish texnikasini to'g'ri bajarishning poydevorini yaratadi, chunki noto'g'ri oyoq ishi bilan o'rganilgan sakrash odatini katta yoshda qayta shakllantirish ancha qiyin kechadi.

2. Reaksiya tezligi va koordinatsiya mashqlari

Zamonaviy tadqiqotlar reaksiya tezligini oshirishga qaratilgan mashqlarning (reaksion to'plar, tezkor ketma-ket zarbalarni qaytarish, kutilmagan signalga javob berish mashqlari) darvozabonlarning tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Yosh darvozabonlarda reaksiya nafaqat mushak-nerv tezligiga, balki to'pning harakat yo'nalishini oldindan bashorat qilish ("o'qish") qobiliyatiga ham bog'liq bo'lib, bu ikkala jarayon alohida-alohida rivojlantirilishi kerak bo'lgan, biroq bir-biriga uzviy bog'liq komponentlardir. 12–13 yosh markaziy nerv tizimining jadal rivojlanishi tufayli koordinatsion-reaktiv sifatlarni o'zlashtirish uchun ayniqsa qulay davr hisoblanadi.

3. Pozitsion o'rnashish va taktik fikrlash mashqlari

Darvozabonning maydonda to'g'ri joylashuvi (pozitsiyalash) ko'p jihatdan uning tajribasi va fazoviy tafakkuriga bog'liq. Kichik guruhli o'yin-mashqlar (small-sided games) darvozabonlarning nafaqat texnik, balki qaror qabul qilish va vaziyatni baholash ko'nikmalarini ham samarali rivojlantirishi aniqlangan; bunday mashqlar reaksiya tezligi, tezlik va yo'nalishni o'zgartirish sifatlari bo'yicha statistik ahamiyatli yaxshilanishlarga olib kelgan. Taktik mashqlarda darvozabonni jamoaning "faol maydon o'yinchisi" sifatida shakllantirish, hujumni tashkil etishda ishtirok etish ko'nikmalarini singdirish tavsiya etiladi.

4. To'p bilan ishlash texnikasiga oid maxsus mashqlar

To'pni qo'l bilan to'g'ri ushlab, past va o'rta balandlikdagi zarbalarni qaytarish, uloqish va sakrash texnikasi bosqichma-bosqich, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rgatilishi lozim. Mutaxassislar bu boradagi mashqlarni ortiqcha zo'riqishsiz, o'yin shaklida va ijobiy motivatsiya asosida tashkil etishni tavsiya qiladi, chunki 11–12 yoshda hali to'liq ixtisoslashuv emas, balki mustahkam texnik poydevor yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi. B.N. Xayitovning gandbol darvozabonlarini tayyorlash metodikasiga bag'ishlangan tadqiqotida ham qo'l-ko'z koordinatsiyasiga asoslangan texnik mashqlarni bosqichma-bosqich, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etish tamoyili tasdiqlangan, bu esa boshqa to'p sport turlaridagi darvozabonlik amaliyoti bilan uyg'unlik kasb etadi [9].

Shuningdek, tahlil natijalari darvozabonlarning texnik ko'nikmalarini obyektiv baholash uchun maxsus test topshiriqlaridan (masalan, tezlik va sakrash ko'rsatkichlarini o'lchovchi test batareyalari) foydalanish mashg'ulot jarayonini boshqarishda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi. Bunday testlar yosh darvozabonlarning jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini obyektiv nazorat qilish, individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. R. Rebelo-Gonçalves va hamkasblari ishlab chiqqan darvozabonlarga xos maxsus test batareyalarining ishonchiligi va o'lchov validligi ilmiy tarzda tasdiqlangan bo'lib, bu testlar yosh darvozabonlarning texnik ko'nikmalarini obyektiv baholashda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi [2].

Yuqorida keltirilgan to'rt yo'nalish bo'yicha tizimlashtirilgan maxsus mashqlarning namunaviy majmuasi, ularning maqsadi va tavsiya etilgan dozasi (1-jadval).

1-jadval: 11–12 yoshli darvozabonlar uchun maxsus mashqlar majmuasi va ularni bajarish bo'yicha tavsiyalar

№	Yo'nalish	Mashq namunasi	Tavsiya
1	Oyoq harakati va muvozanat	Yon qadamlar bilan darvoza kengligida siljish, tez to'xtash va yo'nalish o'zgartirish	3–4 seriya × 15–20 soniya, dam olish 30 soniya
2	Reaksiya tezligi va koordinatsiya	Reaksion to'p bilan tezkor ushlab, kutilmagan signalga ko'ra harakatlanish	8–10 takror × 2–3 seriya
3	Pozitsion o'rnashish	Kichik guruhli o'yin (3x3, darvozabon ishtirokida), pozitsiyani doimiy tuzatish	10–15 daqiqa, o'yin shaklida
4	To'p bilan ishlash texnikasi	Past va o'rta balandlikdagi zarbalarni ushlab, uloqish-sakrash mashqlari	6–8 takror × 3 seriya, progressiv murakkablashtirish



5. Psixologik-irodaviy sifatlarni tarbiyalovchi mashqlar

Darvozabon mavqeining o'ziga xosligi shundaki, uning har bir xatosi darhol va aniq ko'rinishda (gol shaklida) namoyon bo'ladi, bu esa yosh o'yinchida yuqori psixologik zo'riqish va xato qilishdan qo'rqish holatini keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli maxsus mashqlar tizimiga xatodan keyin tez tiklanish ("reset" texnikasi), diqqatni jamlash va emotsional barqarorlikni saqlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi topshiriqlarni ham kiritish tavsiya etiladi. Amaliyotda bunga misol qilib, har bir mashq yoki o'yin epizodidan so'ng qisqa "tiklanish rejasi" (bir chuqur nafas, kalit so'z aytish, ko'zni o'yinga qaytarish) qo'llanilishini keltirish mumkin.

Bunday psixologik jihatdan yo'naltirilgan mashqlar, texnik-taktik topshiriqlar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilganda, darvozabonning nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham barqaror o'yinchi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada yosh darvozabon nafaqat to'g'ri texnik harakatlarni bajarishni, balki xato yuz berganda ham o'zini tuta bilishni, keyingi epizodga to'liq konsentratsiya bilan kirishishni o'rganadi.

Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi sohasi mutaxassislari, sport maktablari murabbiylari hamda talaba-yoshlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 11–12 yoshli darvozabonlarni tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati ikki asosiy jihat bilan izohlanadi.

Birinchidan, bu yosh davri harakat ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun neyrofiziologik jihatdan eng qulay davr hisoblanib, aynan shu bosqichda shakllangan texnik odatlar keyingi sport mahoratining poydevorini tashkil etadi.

Ikkinchidan, darvozabonlik faoliyatining o'ziga xosligi (individual javobgarlik, yuqori psixologik zo'riqish, tezkor qaror qabul qilish zarurati) umumiy futbol mashqlarining bu vazifalarni to'liq qamrab ololmasligini ko'rsatadi, shu sababli maxsus, ixtisoslashgan mashqlar tizimi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda adabiyotlarda 11–12 yoshda erta ixtisoslashuvning salbiy oqibatlariga oid ogohlantirishlar ham uchraydi: bu yoshda darvozabon mavqeiga to'liq mahliyo bo'lishdan ko'ra, umumiy harakat tajribasini boyitish, mashg'ulotlarni o'yin shaklida va ijobiy hissiy muhitda tashkil etish ustuvor bo'lishi ta'kidlanadi. Bu holat murabbiylardan mashqlar intensivligi va bolaning individual rivojlanish darajasi o'rtasidagi muvozanatni sinchkovlik bilan saqlashni talab qiladi.

F.R. Xaitmetov ham yosh futbolchilar mashg'ulotini tashkil etishning dastlabki bosqichida haddan tashqari yuklama va erta ixtisoslashuvdan saqlanish, o'yin faoliyatini bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish zarurligini alohida ta'kidlaydi [7]. Shuningdek, texnik-taktik tayyorgarlik bilan bir qatorda darvozabonning psixologik barqarorligi – xatolardan tez tiklanish, diqqatni jamlash ko'nikmalarini rivojlantirish ham mashg'ulot dasturining ajralmas qismi bo'lishi lozimligi qayd etiladi.

Olingan natijalar mahalliy sport pedagogikasi amaliyoti uchun ham muhim xulosalar beradi: yosh futbol maktablarida darvozabonlar bilan ishlaydigan murabbiylar mashg'ulot dasturlarini tuzishda yuqorida keltirilgan to'rt yo'nalishni (oyoq harakati, reaksiya-koordinatsiya, pozitsion-taktik fikrlash, to'p texnikasi) izchil va o'zaro bog'liq holda rejalashtirishlari, shuningdek, natijalarni davriy testlar orqali obyektiv baholab borishlari maqsadga muvofiqdir.

Alohida ta'kidlash joizki, maxsus mashqlarning samaradorligi faqat ularning mazmuniga emas, balki mashg'ulot jarayonini tashkil etish metodikasiga ham bog'liq. Mashqlarni izchil ravishda murakkablashtirib borish (oddiy sharoitdan - bezovta qiluvchi omillar mavjud o'yin sharoitigacha), yuklama va dam olish nisbatini bolaning yosh xususiyatlariga moslashtirish, shuningdek, har bir mashg'ulotda ijobiy pedagogik muhitni ta'minlash - bularning barchasi maxsus mashqlar samarasini oshiruvchi muhim uslubiy shartlar hisoblanadi. Bundan tashqari, yakka darvozabon bilan ishlash yondashuvidan jamoaviy mashg'ulotlarga bosqichma-bosqich o'tish, darvozabonni jamoaning taktik sxemasiga integratsiya qilish zamonaviy metodikaning ustuvor tamoyillaridan biri sifatida baholanadi. I. Buraimov, M. Erkayeva va M. Odilovanning boshqa to'p sport turlari bo'yicha olib borgan tadqiqotida ham texnik-taktik tayyorgarlikning jismoniy tayyorgarlik bilan uzviy bog'liq holda, izchil metodik tizim asosida rivojlantirilishi umumiy pedagogik tamoyil sifatida qayd etiladi [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- 1) 11–12 yosh darvozabonlik texnikasini shakllantirish uchun neyromotor rivojlanish nuqtai nazaridan eng samarali "sezgir davr" hisoblanadi va bu davrda to'g'ri tashkil etilgan mashg'ulotlar keyingi sport mahoratining asosini yaratadi;
- 2) darvozabonlarni tayyorlashda maxsus mashqlar majmui oyoq harakati, reaksiya-koordinatsiya, pozitsion-taktik fikrlash, to'p texnikasi hamda psixologik-irodaviy tayyorgarlik yo'nalishlarini uyg'un tarzda qamrab olishi lozim;



- 3) mashg'ulotlar bolaning yosh xususiyatlarini, jumladan, psixologik holatini hisobga olgan holda, o'yin shaklida va bosqichma-bosqich murakkablashtirilgan tarzda tashkil etilishi kerak;
- 4) mashg'ulot samaradorligini oshirish uchun texnik-taktik tayyorgarlik darajasini obyektiv baholovchi maxsus testlardan muntazam foydalanish tavsiya etiladi.

A.M. Mahmudovning tadqiqotida ham yosh futbolchilarning musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini muntazam kuzatib borish mashg'ulot jarayonini o'z vaqtida tuzatish va sportchi rivojlanishini obyektiv baholash uchun zarur shart sifatida ko'rsatilgan ^[10].

Kelgusi tadqiqotlarda ushbu nazariy xulosalar asosida ishlab chiqilgan maxsus mashqlar majmuasining amaliy samaradorligini mahalliy yosh sport maktablari sharoitida pedagogik eksperiment yo'li bilan tekshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Otte F.W., Millar S-K., Klatt S. How does the modern football goalkeeper train? An exploration of expert goalkeeper coaches' skill training approaches // Journal of Sports Sciences. – 2020. – Vol. 38, № 11–12.
2. Rebelo-Gonçalves R., Figueiredo A.J., Coelho-e-Silva M.J., Tessitore A. Assessment of Technical Skills in Young Soccer Goalkeepers: Reliability and Validity of Two Goalkeeper-Specific Tests // Journal of Sports Science and Medicine. – 2016. – Vol. 15, № 3.
3. Perez-Arroniz M., Calleja-González J., Zabala-Lili J., Zubillaga A. The soccer goalkeeper profile: bibliographic review // The Physician and Sportsmedicine. – 2023. – Vol. 51, № 3.
4. Kielkopf F., Keiner M. The technical-tactical profile of soccer goalkeepers: the impact of age and competitive level // International Journal of Sports Science & Coaching. – 2024. – Vol. 20.
5. Koopmann T., Faber I., Baker J., Schorer J. Assessing Technical Skills in Talented Youth Athletes: A Systematic Review // Sports Medicine. – 2020. – Vol. 50, № 9.
6. Qidirov A.Q., Borisova O.V. Futbol o'yinida ishtirokchilarning texnik va taktik usullarini rivojlantirishning samarali yo'llari // Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture. – 2023.
7. Xaitmetov F.R. Yosh futbolchilarning mashg'ulotlarini tashkil etish, dastlabki bosqichi // Ilmiy-uslubiy jurnal. – 2022. – № 4. – B. 45–49.
8. Buraimov I., Erkayeva M., Odilova M. Chim ustida xokkeychilarni jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligiga bo'lgan asosiy talab // Modern Science and Research. – 2025. – T. 4, № 6.
9. Xayitov B.N. Gandbol sport turida darvozabon texnik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi // International Conference on Multidisciplinary Science. – 2024.
10. Mahmudov A.M. Futbol akademiyalari 16–17 yoshli futbolchilarining musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini oshirish yo'llari // Uslubiy-ilmiy to'plam. – 2024. – B. 88–93.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.